



MAVZU: O'SMIRLARDA KASB TANLASH MASHAQATLARI.

Qoraqalpog'iston respublikasi

Nukus shahar 19-sonli maktabning amaliyotchi psixologi

Embergenova Gawhar Karimbaevna

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'smirlarning kasb tanlash jarayonida duch keladigan muammolari, ularga ta'sir etuvchi omillar hamda to'g'ri kasb tanlashning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'smir, kasb, qiziqish, qobiliyat, ta'lim, kelajak, tanlov, mehnat bozori.

Kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biridir. Ayniqsa, o'smirlik davrida bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda yoshlar o'z kelajagini rejalashtirish, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda hayot yo'lini tanlash oldida turadilar. Biroq kasb tanlash jarayoni ko'plab qiyinchiliklar va ikkilanishlar bilan kechadi.

O'smirlarda kasb tanlashdagi asosiy mashaqqatlar

-Qiziqish va qobiliyatni aniqlashdagi qiyinchiliklar

Ko'pgina o'smirlar o'z qiziqishlari va qobiliyatlarini to'liq anglab yetmagan bo'ladilar. Natijada ular qaysi kasb o'zlariga mos ekanligini aniqlashda qiynaladilar.

-Kasblar haqida yetarli ma'lumotning yo'qligi

Bugungi kunda kasblarning turi juda ko'p. Ayrim o'smirlar esa mavjud kasblar, ularning vazifalari va istiqbollari haqida yetarli ma'lumotga ega emaslar. Bu esa noto'g'ri tanlov qilish xavfini oshiradi.



-Ota-ona va jamiyat bosimi

Ba'zi hollarda ota-onalar yoki yaqinlar farzandning qiziqishidan ko'ra o'z istaklarini ustun qo'yadilar. O'smir esa o'z xohishi bilan boshqalarning kutganlari o'rtasida qolib ketadi.

-Kelajakdan xavotirlanish

Kasb tanlashda o'smirlarni eng ko'p o'ylantiradigan masalalardan biri — kelajkdagi ish o'rni va daromad masalasidir. Ular tanlagan kasbi kelajakda talabgir bo'ladimi yoki yo'qmi, degan savollar bilan yuzlashadilar.

-Tengdoshlar ta'siri

Do'stlarining tanlovi ham o'smirlarga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zan yoshlar o'z qiziqishlariga mos bo'lmagan kasbni faqat tengdoshlariga ergashib tanlaydilar.

-Muammoning yechimlari

Kasb tanlashdagi qiyinchiliklarni kamaytirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

O'smirlarning qiziqish va qobiliyatlarini erta aniqlash;

Kasblar haqida keng va ishonchli ma'lumotlar berish;

Maktablarda kasbiy yo'naltirish ishlarini kuchaytirish;

Psixolog va mutaxassislar tavsiyalaridan foydalanish;

Ota-onalar tomonidan ma'naviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;

O'smirning mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratish.



O'smirlik davri bir qator qiyinchiliklari bilan boshqa davrlardan ajralib turadi. Eng asosiysi bu o'zi uchun kasb-hunar tanlovdagi qiyinchiliklardir, bu to'siqlar bola va atrofdagilari o'rtasidagi kelishmovcilik va nizolarni o'zida esa kuchli havotir, stress ba'zida tajanglikni keltirib chiqaradi. Shunday to'siq va qiyinchilik kelib chiqishini oldini olish maqsadida ota-ona ularni faqatgina o'smirlik davrida kelibgina hunar tanlashlari uchun imkoniyat yoki qulaylik yaratishlari emas, balki yoshligidan turli hunarlar bilan to'qnash qilib borish lozimdir. Misol tariqasida oddiy uy yumushlariga ko'maklashish orqali, keyinchalik o'zlari shug'illanayotgan biror hunar bilan shug'ullanishga undash orqali ham ularni oilaviy hunarga o'rgatib birlamchi yoki qo'shimcha hunar egasi sifatida tarbiyalab borish. Bilamizki yosh avlodni hunar egallashi bu uning o'zining kelajagi, oilasi va qolaversa jamiyat taraqqiyoti uchun ham juda katta foydadir. O'zi uchun foyda tomoni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish, qo'shimcha daromad va bosh miya faoliyatini yaxshi rivojlanishiga olib keladi. Shu o'rinda qizlarimizni bir necha kasb-hunar egallashi kelajak avlod tarbiyasi uchun ham juda katta foyda ekanligi haqida to'htalib o'tamiz va shu borada uy sharoitida oddiy va juda ham ko'p foydali bo'lgan bir necha psixologik mashg'ulotni tavsiya sifatida keltirib o'tamiz.

1-mashg'ulot: "Halqalar birlashganda" Bu uy sharoitida amalga oshirish qulay bo'lgan mashg'ulot hisoblanib, kichik maktab yoshidagi qizlarimizni hunar egallashlariga, bilish jarayonlari(diqqat, tafakkur,sezgi,xotira hamda nutq)ni rivojlanishiga yaxshi samara beradi. Kerakli jihozlar; Turli rangdagi to'qish iplari, to'qish anjomlari. Mashg'ularni borishi; Uy sharoitida ona farzandlari bilan birga o'rgansa ham bo'ladi. Turli rangdagi to'qish iplarini ranglari, shakllari rus, ingliz tillardagi (boshqa bilish doirasiga qarab) nomlari, ularni shakllari, qaerda, qay holatda etishtirilishi so'rab boriladi va turli shakldagi, rangdagi mevalarni to'qish o'rgatiladi. To'qish inson organizmida asab tizimini yaxshilash, stressdan chiqishida yordam beradi. O'z navbatida bolalarda qo'l metodikasini yaxshilashda



ham foydasi biqiyosdir. Qo‘shimcha sifatida turli shakldagi choynik va qozon uchun tagliklar to‘qib ularni matematika faniga oid savol-javoblar bilan davom ettirish mumkin. Ya‘ni bir mashg‘ulot orqali qizlarimizga bir necha quyidagi savollarni berish mumkin. Qaysi meva qanday shaklga ega bo‘ladi?, Bu rangdagi(qizil, sariq.....) to‘qish ipidan qanday mevalar to‘qish mumkin? Meva nomlarini qaysi davlat tillarida aytib bera olasan?... Bunday savollar xotirada- esga olish, yodda saqlash kabi, tafakkurda- analiz, sintez, qiyoslash, taqqoslash, umumlashtirish kabi, sezgida- ko‘rish, his etish, eshitish, tam bilish kabi, hayol, diqqat va og‘zaki nuqtalarini rivojlantirishda bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

2-mashg‘ulot; "Men orasta chaqqonman" deb nomlanadi. Mashg‘ulot maqsadi; eng avvalo hunarga, mehnatga mehr uyg‘atish uni qadriga yetish va mayda qo‘l matorikasini yaxshilash, chaqqonlik va orastalikka o‘rgatish. Mashg‘ulotni borishi; To‘qish iplari bozordan olinganda bir shakldagi kalava holda bo‘ladi va to‘qish davomida noqulaylik keltirib chiqaradi yoki chigal bo‘lib qolish ehtimoli bor, shu sabab ham iplarni dumaloq shaklga keltirib o‘ratishni bir kishidan iborat bo‘lsa vaqt belgilab bergan holda, ikki yoki undan ortiq bo‘lsa kim birinchi bo‘lish orqali ularga iplarni o‘ratamiz. Chigal bo‘lib qolgan iplarni ham ularga hayotdagi chigal vaziyatga taqqoslash kabi sabrsizlik qolib uzib tashlash emas qunt bilan echishga undash. Insonni sabrlikka o‘rgatadi va ong ostida muammoli vaziyatlarda ehtiyotkorlik bilan qaror qabul qilishga ko‘niktirib boradi. Ana shu kabi ko‘rinishi oddiy, sodda har doim kundalik hayotimizda qilib yurgan ishlarimizni hayotiy vaziyatlarga, fanlarga bog‘lash orqali o‘rgatib yoki birga o‘rganib borish bu bolani o‘smirlik davrida kelibgina hunar bilan yuzlashganida tanlash borasidagi qiyinchiliklarga sabab bo‘lmaydi. Xulosa qilib aytganda: Farzand tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya - bu "naqsh" demakdir. Ota-ona naqqosh, farzand esa naqsh urulgan uymali naqsh asaridir. Zero shunday ekan ularga yaxshi amallar bilan o‘rnak ko‘rsatgan holda naqsh berish lozimdir. Naqsh asari o‘z sayqali darajasida



kam ko'ssiz asar holiga kelishida biz naqqosh ota-onalarga qanday psixologik tavsiyalar asq otishi mumkin, keling ana shular haqida to'htalib o'tamiz.

-Dastlab bolaga go'dakligidan mehr berish lozimdir, har qanday hissiy immunitet nigizini mehr tashkil etadi;

- Bolani yoshligidan kun tartibiga (uyqu, ovqatlanish va bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlashga) rioya etgan holda tarbiyalash va o'zini ham bunga o'rgatib borish;

-Oilaviy qadriyatlar, an'analarga o'rgatib borish;

-Qalbida iymon va vijdon tuyg'usi shakllantirish;

-Birgalikda diniy va dunyoviy bilimlar egallashlariga ko'maklashish;

-Yutug'ini manaviy va ruhiy qo'llab-quvvatlab rag'batlantirib boring;

-O'zlariga yoqqan go'zal so'zlar bilan erkalab chaqiring va tez-tez bag'ringizga bosib mehringizni bildiring;

-Sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'ying, oilaviy sayrlarni tez-tez tashkil eting;

-Birgalikda orzu qilish va rejalar tuzishga o'rgatib boring;

-Biror bir hunar va doimiy maqsad bilan yashashga o'rgating;

-Ularni qo'l mehnatiga va mehnatning qadriga yetishga ko'maklashing;

-Tabiatni sevishga va unga g'amxo'rlik (gull va daraxtlarga suv qo'yish, ekish yoki parvarishlash) qilishga o'rgatib boring;

-Birgalikda oilaviy mashg'ulot uy yumushlarida ishtirok etishlarini ta'minlang;

-O'z imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun imkoniyat yaratib bering, va imkoniyatlarini sayqal topishiga ko'maklashing;



- Eng muhimi har bir farzand alohida takrorlanmas olam ekanligini va bu olam sizning baxtiyorlik garmonlaringizdan ozuqlanishini yodda tuting!

Xulosa

O‘smirlarda kasb tanlash mashaqqatlari tabiiy holat bo‘lib, bu jarayon katta mas’uliyat talab qiladi. To‘g‘ri tanlangan kasb insonning kelajakdagi muvaffaqiyati, hayotdan qoniqishi va jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Shu sababli o‘smirlarga kasb tanlashda har tomonlama yordam ko‘rsatish, ularning qiziqish va qobiliyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Kasb tanlashdagi ongli va puxta qaror yoshlarning porloq kelajagini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – T., 1997-yil 29-avgust.
3. Qodirova M. Yoshlar ongida g‘oyaviy dunyoqarashni shakllantirish. – T.: Yangi asr avlodi,